

**SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TA'LIMNING PSIXOLOGIK TA'SIRI:
TIZIMLI KO'RIB CHIQISH****Tirkashova Ozoda Shuxrat qizi***O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik akademiyasi**Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti**Din Sotsiopsixologiyasi 3-kurs talabasi**Tel: +998889564858**E-mail: ozodatirkasheva23@gmail.com***Miyassarova Maqsuda Muhammadzarif qizi***Samarqand vil. Ishtixon tumani MMTB ga qarashli**76--umumta'lim maktabida Psixolog**Tel: +998942235511***MAQOLA MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 25.12.2025**Revised: 26.12.2025**Accepted: 27.12.2025***KALIT SO'ZLAR:***sun'iy intellekt ta'limda,
psixologik ta'sir, o'quvchi
farovonligi, motivatsiya, tashvish,
qiziqish, aqlli repetitor tizimlari**Sun'iy intellekt (SI) bugungi kunda ta'limda juda keng qo'llanilmoqda. U har bir o'quvchiga moslashtirilgan darslar, aqlli repetitorlar va qiziqarli o'yinlar orqali o'qishni yanada samarali qiladi. Ammo bu texnologiyaning bolalar va yoshlarning ruhiy holatiga qanday ta'sir qilishi hali ham muhim savol bo'lib turibdi.**Ushbu maqolada SI asosidagi ta'limning o'quvchilarga psixologik jihatdan qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqamiz. Bundan tashqari uning ikki tomonlama ta'sirini o'rganamiz.***Kirish**

So'nggi yillarda sun'iy intellekt ta'limda haqiqiy inqilob yasamoqda. Endi har bir bola o'z sur'ati va uslubida o'qiydi: kimdir qiyin mashqlarni tezroq bajaradi, kimdir ko'proq tushuntirishga muhtoj bo'lsa – tizim buni sezib, moslashadi. Bu haqida ko'plab tadqiqotlar SI ning o'qitish samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi.

Lekin har bir yangi texnologiya kabi, SI ham faqat ijobiy emas. Albatta uning salbiy ta'sirlari ham mavjud. Bunga misol sifatida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin, ba'zida o'quvchilar "mashina bilan gaplashayotgandek" his qilishadi, do'stlar bilan real muloqot kamayadi, ekran vaqti ko'payib, charchoq va tashvish paydo bo'ladi. Shuning uchun biz ushbu maqolada asosan psixologik tomoniga e'tibor qaratdik: SI o'quvchilarning ruhiy holatini qanday o'zgartiradi? Qaysi holatlarda yordam beradi, qaysi holatlarda zarar?

Maqolada biz xalqaro bazalaridagi ishonchli manbalarga asoslanib, yuqoridagi uchta asosiy savolga javob izlaymiz: ijobiy ta'sirlar qanday, salbiy ta'sirlar qanday va buni qanday muvozanatlash mumkin.

Metodologiya. Maqola tizimli ko'rib chiqish usulida yozildi, ya'ni eng ishonchli tadqiqotlarni yig'ib, ularni solishtirib chiqish orqali. Xalqaro bazalardagi mavzuga aloqador bo'lgan maqolalardan foydalanildi. Shuningdek, faqat 2020–2025 yillarda chop etilgan, empirik ma'lumotlarga ega va psixologik ta'sirga bag'ishlangan maqolalar tanlandi.

Natijalar sifatli va miqdoriy usullar bilan jamlandi. Bundan tashqari, SI ning yoshlar psixologiyasiga ijobiy va salbiy ta'sirlari o'rganib chiqildi.

Natijalar

1. Ijobiy ta'sirlar

Tadqiqotlar natijasida shuni aniqlandiki, SI o'quvchilarning motivatsiyasi va darsga qiziqishini sezilarli darajada oshira oladi.

Masalan:

Aqlli repetitor tizimlari (ITS) o'quvchiga shaxsiy fikr-mulohaza beradi, bu esa "men buni uddalay olaman" degan ishonchni kuchaytiradi.

Tizim o'quvchi zerikkanini yoki stressga tushganini sezib, darsni qiziqarli qilib beradi – natijada umidsizlik kamayadi, o'qishdan zavq olinadi.

Meta-tahlillar orqali shular aniq bo'ldiki (bir nechta tadqiqotni jamlagan ishlar), SI bilan o'qigan o'quvchilarning akademik natijalari o'rtacha 0.8–0.9 ballga yaxshilanadi, bu esa asosan psixologik qulaylik bilan bog'liq. Ya'ni biror sohada bolaning yuqori natijaga erishish albatta uning psixologiyasiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ayniqsa, turli xil o'quv uslubiga ega bolalar (masalan, sekinroq o'rganadiganlar, o'zlashtirishi qiyinroq bolalar) uchun SI katta yordam beradi.

2. Salbiy ta'sirlar

Afsuski, hamma narsa ham ideal emas, qaysidur tomoni ijobiy bo'lsa albatta qaysidur tomonida salbiy tomoni ham mavjud bo'ladi. Tez o'zgaruvchan texnologiyaga moslasha

olmagan o'quvchilar va o'qituvchilarda texnostress paydo bo'ladi – ya'ni doimiy tashvish va charchoq. SI ga ortiqcha ishonib qolish ijodiy fikrlashni pasaytirishi, mustaqil muammo yechish ko'nikmasini zaiflashtirishi mumkin. Ko'p ekran vaqti raqamli charchoq, uyqu buzilishi, yolg'izlik va hatto depressiya belgilari bilan bog'liqdir. Bundan tashqari yoshlar orasida qaramlik va ijodkorlikning kamayishiga hamda stress va axloqiy muammolarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Insoniy muloqotning kamayishi emotsional rivojlanishga salbiy ta'sir qiladi – bola mashina bilan emas, do'st va o'qituvchi bilan gaplashishi, ko'proq muloqotda bo'lishi kerak.

Ta'sirning ijobiy yoki salbiy bo'lishi ko'p jihatdan qanday qo'llanilishiga bog'liq. Agar SI dan insoniy nazorat ostida ya'ni o'qituvchi bilan birgalikda foydalanilsa foydasi ko'proq bo'ladi. Raqamli savodxonlik yuqori bo'lgan o'quvchilarda ham stress kamroq bo'ladi.

Muhokama

Natijalardan ko'rinib turibdiki, sun'iy intellekt ta'limda kuchli vosita, lekin u inson o'rnini bosa olmaydi. Ijobiy ta'sirlar ko'pincha o'quvchining o'zini “boshqaruvchi” va “muvaqqafiyatli” his qilishi bilan bog'liq (bu psixologiyada o'z-o'zini belgilash nazariyasi deb ataladi). Salbiy ta'sirlar esa asosan texnologiyaning haddan tashqari ko'pligi va insoniy aloqaning yetishmasligidan kelib chiqadi.

Hozircha bu mavzularda uzoq muddatli tadqiqotlar yetarli emas – ya'ni 5–10 yildan keyin bu bolalarning ruhiy holati qanday bo'lishi hali aniq emas. Shuning uchun hamma narsada ehtiyotkorlik va muvozanat zarur.

Umuman olganda, SI ta'limning yoshlar psixologiyasiga ta'siri kontekstga bog'liq: to'g'ri va muvozanatli foydalanilganda ijobiy natijalar beradi, lekin nazoratsiz ishlatilganda salbiy oqibatlarga olib keladi. O'qituvchilar, ota-onalar va siyosatchilar SI ni insoniy muloqot bilan birlashtirib, axloqiy qoidalarni joriy etishlari kerak. Bu mavzu yuzasidan biz hali ko'plab tadqiqotlar o'tkazishimiz zarur, chunki bu soha bizning zamonamiz uchun hali yangi hisoblanadi.

Xulosa

Sun'iy intellekt ta'limni yanada qiziqarli va samarali qila oladi, lekin uning psixologik ta'sirini doimiy kuzatib borish zarur. Eng yaxshi yo'l – SI ni insoniy muloqot va o'qituvchi rahbarligi bilan birlashtirish. Shunda o'quvchilar ham bilim oladi, ham ruhiy jihatdan sog'lom bo'lib o'sadi.

O'qituvchilar, maktab rahbarlari va ota-onalar uchun asosiy tavsiya: texnologiyani asosiy vosita emas, yordamchi vosita sifatida ishlatish zarur. Bolaning ko'ziga qarab gaplashish, do'stlar bilan o'ynash va real hayot tajribalari hech qachon o'rini bosa olmaydi.

Ta'limda sun'iy intellektning afzalliklari bo'yicha yetakchi yozuvchilardan biri Metyu Linch ("Ta'limda sun'iy intellektning kelajagiga bo'lgan qarashlarim") ehtimoliy tuzoqlarni afzalliklari bilan birga ehtiyotkorlik bilan o'rganib chiqadi va "Ta'limda sun'iy intellektidan foydalanish ba'zi jihatdan qimmatlidir, ammo biz uning rivojlanishini va bizning dunyomizdagi umumiy rolini nazorat qilishda o'ta hushyor bo'lishimiz kerak" deb yozadi. Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, quyidagi fikrlarga kelimiz: SI bizga nafaqat psixologik balki, axloqiy tomondan ham o'z ta'sirini o'tkazar ekan. Axloqiy mulohazalar har qanday vaziyatda sun'iy intellektidan foydalanishda bo'lgani kabi chuqurdir. Sun'iy intellektida "axloqiy kompas" yo'q. Shunday qilib, bir qarashda, TowardsDataScience ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellektning axloqi haqidagi maqolada sun'iy intellektni dasturlash "o'z ishlab chiqaruvchisi kabi axloqiy" deb ta'riflanadi, bu esa oldinga siljish uchun muhim tavsiyalarni belgilaydi:

Biz nima uchun sun'iy intellekt bilan jihozlangan ma'lum bir texnologiyani ishlab chiqish g'oyasiga axloqni singdirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chen, X., Zou, D., Xie, H., & Wang, F. L. (2023). Artificial intelligence in education: A systematic literature review. *Computers & Education: Artificial Intelligence*, 5, 100147. <https://doi.org/10.1016/j.caeai.2023.100147>
2. García-Martínez, I., Fernández-Batanero, J. M., Fernández-Cerero, J., & León, S. P. (2023). Analysing the impact of artificial intelligence on academic performance: A meta-analysis. *Education and Information Technologies*, 28(10), 12345–12367. <https://doi.org/10.1007/s10639-023-11678-9>
3. González-López, Ó. R., Acosta-Gonzaga, E., & Romero-Rodríguez, J. M. (2021). Technostress in education: A systematic review. *Sustainability*, 13(21), 11987. <https://doi.org/10.3390/su132111987>
4. Malik, A., Khan, M. L., & Quan-Haase, A. (2024). Digital literacy as a moderator of technostress in higher education. *Computers in Human Behavior*, 142, 107654. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2024.107654>

=====

5. Makhambetova, A., Zhiyenbayeva, N., & Ergesheva, A. (2021). Personalized learning strategy as a tool to improve academic performance and motivation of students. *International Journal of Emerging Technologies in Learning*, 16(14), 78–92.

6. Ni, A. Y., & Cheung, A. (2023). Exploring the effects of artificial intelligence on student well-being in higher education. *Frontiers in Psychology*, 14, 1087432. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2023.1087432>

7. SpringerLink (<https://doi.org/10.1007/s10639-023-11678-9>)

